

O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARINING KICHIK BIZNES SAMARADORLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI

Mirjalolova Muazzamxon Mirjalil qizi,

Namangan davlat texnika universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot tamoyillarining kichik biznes raqobatbardoshligiga ta'siri o‘rganilgan. Tadqiqotda statistik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Natijalar yashil texnologiyalar va yashil moliyalashtirish mexanizmlarining korxonalarining bozor raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatdi. Tadqiqot yakunida kichik biznesda yashil transformatsiyani jadallashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.*

Kalit so'zlar: *yashil iqtisodiyot, kichik biznes, raqobatbardoshlik, iqtisodiy samaradorlik, yashil moliyalashtirish, ekologik innovatsiyalar, barqaror rivojlanish.*

Аннотация: *В данной статье исследуется влияние принципов зелёной экономики на конкурентоспособность малого бизнеса в Узбекистане. В исследовании использованы методы статистического и сравнительного анализа. Полученные результаты показали, что зелёные технологии и механизмы зелёного финансирования способствуют повышению эффективности деятельности предприятий и укреплению их рыночной конкурентоспособности. По итогам исследования разработаны практические рекомендации по ускорению процессов зелёной трансформации в секторе малого бизнеса.*

Ключевые слова: *зелёная экономика, малый бизнес, конкурентоспособность, экономическая эффективность, зелёное финансирование, экологические инновации, устойчивое развитие.*

Abstract: *This article examines the impact of green economy principles on the competitiveness of small businesses in Uzbekistan. The study employs statistical and comparative analysis methods. The findings indicate that green technologies and green financing mechanisms contribute to improving business efficiency and strengthening market competitiveness. Based on the results, practical recommendations have been developed to accelerate green transformation processes in the small business sector.*

Keywords: *green economy, small business, competitiveness, economic efficiency, green financing, ecological innovation, sustainable development.*

KIRISH

Bugungi kunda yashil iqtisodiyot barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Resurslardan oqilona foydalanish, energiya samaradorligini oshirish va ekologik innovatsiyalarni joriy etish korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda ham yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda kichik biznes subyektlarining yashil texnologiyalar va zamonaviy boshqaruv usullaridan foydalanishi ularning raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda yashil iqtisodiyot tamoyillarining kichik biznes raqobatbardoshligiga ta'sirini tahlil qilish hamda ushbu yo'nalishda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Yashil iqtisodiyot va kichik biznes raqobatbardoshligi o'zaro munosabatlarini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlar so'nggi yillarda keskin ko'paydi. Porter va Van Der Linde (1995) o'zlarining klassik tadqiqotida ekologik standartlar qattiqligining innovatsiya va raqobat ustunligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini asoslab bergan — bu g'oya keyinchalik «Porter gipotezasi» sifatida keng tarqaldi [3].

OECD (2023) hisobotida yashil texnologiyalarni joriy etgan kichik korxonalarining energiya xarajatlarini o'rtacha 18–24 foizga, xom ashyo sarfini esa 12–15 foizga kamaytirishi qayd etilgan [4]. Xuddi shu tadqiqot shuni ham ko'rsatadiki, ekologik sertifikatga ega mahsulotlar xalqaro bozorlarda 12–27 foiz qo'shimcha narx imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa kichik biznes uchun yashil o'tishni nafaqat ekologik, balki iqtisodiy jihatdan ham maqbul yo'l sifatida belgilaydi.

O'zbek iqtisodchilari Yo'ldashev N.K. va Toshmatov A.R. (2023) o'z tadqiqotlarida O'zbekistondagi kichik korxonalar yashil texnologiyalarga o'tishda moliyaviy va axborot to'siqlariga duch kelishini aniqlagan [5]. Muallif Nazarov B.O. (2024) esa Farg'ona vodiysidagi to'qimachilik korxonalarini misolida yashil innovatsiyalarning mahsulot raqobatbardoshligiga 15–22 foizlik ijobiy ta'sirini empirik tarzda isbotlagan [6].

Dunyo banki (2024) o'z hisobotida rivojlanayotgan mamlakatlar kichik biznesida yashil o'tishning beshta asosiy to'sig'ini aniqlagan: moliyaviy yetishmovchilik, texnik kompetentsiya etishmasligi, axborot assimetriyasi, bozor stimullarining zaifligi va me'yoriy-huquqiy bazaning nomukammalligi [1]. O'zbekiston ham bu muammolardan xoli emas, lekin 2022 yildan boshlab amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlar vaziyatni sezilarli darajada yaxshiladi.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot tamoyillarini qabul qilish kichik biznes uchun xarajatlar tejamkorligidan tortib eksport imkoniyatlarini kengaytirishgacha bo'lgan ko'p qirrali raqobat afzalliklarini shakllantiradi. Biroq O'zbekiston sharoitida ushbu bog'liqlikni regional farqlar kontekstida o'rganish yetarli darajada amalga oshirilmagan, bu esa mavzuning ilmiy yangiligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda yashil iqtisodiyot tamoyillarining kichik biznes raqobatbardoshligiga ta'sirini o'rganishda statistik, qiyosiy va tahliliy usullardan foydalanildi. Tadqiqot uchun O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi hamda xalqaro tashkilotlarning rasmiy ma'lumotlari tahlil qilindi. Shuningdek, yashil iqtisodiyot va kichik biznes rivojlanishiga oid ilmiy adabiyotlar o'rganilib, ularning natijalari qiyosiy tahlil asosida baholandi. Olingan ma'lumotlar umumlashtirilib, yashil texnologiyalar va yashil moliyalashtirish mexanizmlarining kichik biznes raqobatbardoshligiga ta'siri tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari asosida kichik biznesda yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy etish va raqobatbardoshlikni oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

NATIJALAR

O'tkazilgan tahlil 2022–2025 yillar davomida O'zbekistonda yashil iqtisodiyot elementlarini joriy etgan kichik korxonalar sonining jadal o'sganini ko'rsatdi. Quyidagi 1-jadvalda asosiy ko'rsatkichlarning dinamikasi keltirilgan.

1-jadval. O'zbekistonda Yashil iqtisodiyot va kichik biznes ko'rsatkichlari dinamikasi (2022–2024)

Ko'rsatkich	2022	2023	2024
Kichik biznesning YAIM dagi ulushi (%)	51.8	54.7	55.6
Energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etgan korxonalar ulushi (%)	8,4	11,2	14,9
Yashil kreditlar hajmi (mlrd so'm)	320	870	1 940

Eksportdagi ekologik mahsulotlar ulushi (%)	3,1	4,6	6,2
Qayta tiklanuvchi energiya loyihalari soni	126	214	347

Manba: Stat.uz, O'zbekiston Ekologiya vazirligi, Dunyo banki ma'lumotlari muallif hisob-kitoblari asosida tuzildi.

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2022–2024 yillar davomida O'zbekistonda energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etayotgan kichik korxonalar ulushi 8,4 foizdan 14,9 foizgacha oshgan. Bu esa kichik biznes subyektlarida resurslardan samarali foydalanish va ekologik barqaror ishlab chiqarishga bo'lgan qiziqish kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Shu davr mobaynida yashil kreditlash hajmi 320 mlrd so'mdan 1 940 mlrd so'mga yetib, qariyb 6 barobar oshdi. Mazkur holat yashil moliyalashtirish instrumentlariga talabning sezilarli ortib borayotganidan dalolat beradi. Shuningdek, ekologik mahsulotlar eksporti ulushining 3,1 foizdan 6,2 foizgacha o'sishi yashil iqtisodiyot tamoyillarining kichik biznes raqobatbardoshligiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini tasdiqlaydi. Qayta tiklanuvchi energiya loyihalari sonining ham izchil ortib borishi iqtisodiyotda yashil transformatsiya jarayonlari faollashayotganini ko'rsatadi.

Viloyatlar bo'yicha qiyosiy tahlil (2-jadval) ko'rsatkichlarda sezilarli hududiy farqlar mavjudligini ko'rsatdi.

2-jadval. Viloyatlar bo'yicha yashil ko'rsatkichlar va raqobatbardoshlik indeksi (2024)


Viloyat	Yashil korxonalar ulushi (%)	Raqobatbardoshlik indeksi (0–10)	Energiya samaradorligi o'sishi (%)	Eksport o'sishi (%)
Toshkent shahri	24,3	7,2	18,4	22,1
Namangan	16,7	6,1	14,2	17,8
Samarqand	14,9	5,9	12,8	15,4
Andijon	13,2	5,7	11,6	14,2

Farg'ona	12,4	5,5	10,9	13,7
Qashqadaryo	9,8	4,8	8,4	9,6
O'zbekiston o'rtacha	13,6	5,8	12,1	15,5

Manba: Stat.uz, Savdo-sanoat palatasi, muallif hisob-kitoblari asosida.

Toshkent shahri barcha ko'rsatkichlarda yetakchi o'rinni egallaydi: yashil korxonalar ulushi 24,3 foiz, raqobatbardoshlik indeksi esa 7,2 ball. Bu viloyatlararo farqni qisman infratuzilma, moliyaviy xizmatlar sifati va axborot muhiti bilan tushuntirish mumkin. Namangan viloyati ikkinchi o'rinda turadi, bu to'qimachilik sektorida yashil texnologiyalarni faol joriy etish bilan izohlanadi.


O'tkazilgan tahlillar yashil texnologiyalarni joriy etayotgan korxonalarda raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari nisbatan yuqori ekanligini ko'rsatdi. Bu holat yashil iqtisodiyot tamoyillarining kichik biznes rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganidan dalolat beradi



Manba: Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Diagramma 1. Yashil texnologiyalarni joriy etgan va etmagan kichik korxonalarining raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari (2022–2024)

Diagramma natijalari yashil texnologiyalarni joriy etgan kichik korxonalarda raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlari nisbatan yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Xususan, energiya tejamkor texnologiyalar va ekologik innovatsiyalarni qo‘llayotgan korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligi hamda eksport faolligi izchil oshib borgan. Yashil texnologiyalarni joriy etmagan korxonalarda esa o‘shish sur‘atlari nisbatan past darajada saqlanib qolgan.



Manba: Stat.uz, O‘zbekiston Ekologiya vazirligi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Diagramma 2. O‘zbekistonda yashil kreditlash va eksport o‘shishi dinamikasi (2022–2024)

Tahlillar yashil kreditlash hajmi oshishi bilan ekologik mahsulotlar eksporti o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Xususan, yashil moliyalashtirish instrumentlarining kengayishi kichik biznes subyektlarida texnologik modernizatsiya jarayonlarini tezlashtirib, eksport salohiyatining oshishiga xizmat qilgan. Mazkur holat yashil iqtisodiyot tamoyillarining iqtisodiy samaradorlik va tashqi bozordagi raqobatbardoshlikka ijobiy ta‘sir ko‘rsatayotganini tasdiqlaydi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish kichik biznes subyektlarining iqtisodiy samaradorligi va raqobatbardoshligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatayotganini ko‘rsatdi. Xususan, energiya tejamkor texnologiyalarni qo‘llayotgan korxonalar ulushining oshishi resurslardan samarali foydalanish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish imkonini yaratmoqda. Tadqiqot natijalari OECD (2023) hisobotlarida keltirilgan xulosalar bilan mos

keladi. Mazkur hisobotlarda yashil texnologiyalar energiya xarajatlarini kamaytirishi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishi qayd etilgan. O‘zbekiston misolida ham yashil kreditlash hajmining oshishi va ekologik mahsulotlar eksporti ulushining ko‘payishi kichik biznesning modernizatsiya jarayonlari faollashayotganini ko‘rsatdi.

Hududlar kesimidagi tahlillar Toshkent shahri, Namangan va Samarqand viloyatlarida yashil texnologiyalarni joriy etish darajasi nisbatan yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Bu holat mazkur hududlarda infratuzilma rivojlanganligi, investitsion muhit va eksport salohiyati bilan izohlanadi. Qashqadaryo viloyatida ko‘rsatkichlarning nisbatan pastligi esa texnologik modernizatsiya va moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari cheklanganligi bilan bog‘liq. Shuningdek, yashil kreditlash instrumentlarining kengayishi kichik biznes subyektlarining eksport faoliyatini rag‘batlantirayotgan muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘ldi. Bu holat yashil iqtisodiyot tamoyillari iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda tashqi bozordagi raqobatbardoshlikni ham kuchaytirishini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari asosida hududiy infratuzilmani rivojlantirish, yashil moliyalashtirish dasturlarini kengaytirish hamda kichik biznes uchun texnologik maslahat xizmatlarini kuchaytirish zarurligi aniqlandi.

XULOSA

Ushbu tadqiqot O‘zbekiston kichik biznesida yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishning iqtisodiy samaradorlik va raqobatbardoshlikka ijobiy ta‘sir ko‘rsatayotganini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, 2022–2024 yillar davomida energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etayotgan korxonalar ulushi, yashil kreditlash hajmi hamda ekologik mahsulotlar eksporti izchil oshib borgan. Hududiy tahlillar yashil iqtisodiyot elementlarini joriy etish darajasi viloyatlar kesimida bir xil emasligini ko‘rsatdi. Toshkent shahri va ayrim sanoatlashgan hududlarda ko‘rsatkichlar yuqori bo‘lsa, ayrim viloyatlarda bu jarayon nisbatan sust rivojlanmoqda. Bu esa yashil transformatsiya jarayonida hududiy infratuzilma va investitsion muhit muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi. Shuningdek, yashil kreditlash dasturlarining kengayishi kichik biznesning eksport salohiyatini oshirish va modernizatsiya jarayonlarini jadallashtirishda muhim iqtisodiy omil bo‘lib xizmat qilayotgani aniqlandi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- yashil kreditlash dasturlarini kengaytirish;
- hududiy texnologik infratuzilmani rivojlantirish;
- kichik biznes uchun ekologik innovatsiyalar bo‘yicha maslahat xizmatlarini kuchaytirish;
- energiya samarador texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantirish.

Kelgusida yashil iqtisodiyotning mehnat bozori, eksport salohiyati va hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta‘sirini chuqurroq empirik tadqiq qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. World Bank. (2024). Green Economy Transition in Developing Countries: Small Business Perspectives. Washington, D.C.: World Bank Group. <https://openknowledge.worldbank.org>
2. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi. (2024). Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: yillik hisobot 2024. Toshkent: Stat.uz. <https://stat.uz>
3. Porter, M.E., & van der Linde, C. (1995). Toward a new conception of the environment-competitiveness relationship. *Journal of Economic Perspectives*, 9(4), 97–118.
4. OECD. (2023). Green Growth Indicators 2023: SME Focus. Paris: OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/greenindicators-2023>
5. Yo'ldashev N.K., Toshmatov A.R. (2023). O'zbekiston kichik korxonalarida yashil texnologiyalarga o'tishning to'siqlari. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, (4), 112–126.
6. Nazarov B.O. (2024). Yashil innovatsiyalarning kichik to'qimachilik korxonalarida raqobatbardoshligiga ta'siri: Farg'ona vodiysi misoli. *O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi*, 18(2), 78–95.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 13-maydagi PF-79-son farmoni: O'zbekiston Respublikasini 2030 yilgacha yashil iqtisodiyotga o'tkazish strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.05.2022.
8. UNEP. (2023). Global Trends in Renewable Energy Investment 2023. Geneva: United Nations Environment Programme.
9. Agentstvo statistiki pri Prezidente Respubliki Uzbekistan. (2025). Maloe predprinimatel'stvo: itogi 2024 goda. Tashkent: Stat.uz.
10. Mirziyoyev Sh.M. (2023). Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.
11. United Nations Environment Programme (UNEP). (2021). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. Nairobi: UNEP.
12. International Energy Agency (IEA). (2023). Energy Efficiency 2023. Paris: IEA.
13. European Commission. (2022). SMEs and the Green Transition: Opportunities and Challenges. Brussels: European Commission.
14. Khan, M., & Qureshi, S. (2022). Green innovation and SME competitiveness: Evidence from developing economies. *Journal of Cleaner Production*, 350, 131451.
15. Zhang, Y., Li, H., & Chen, X. (2023). Sustainable business practices and competitiveness of SMEs. *Business Strategy and the Environment*, 32(4), 2105–2118.